

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

| | |
|---|-------------------|
| B.M.Qandov | |
| Turor risqulovning turkistonda milliy davlat qurilishi sohasiga qo'shgan hissasi..... | 302 |
| U.J.Mansurov | |
| Turkistonda mustamlakachilik siyosatiga qarshi jadidchilik harakatining o'ziga xos jihatlari..... | 308 |
| M.M.Alimova | |
| 1920-1930 yillardagi kooperatsiya tizimi sistemasi | 312 |
| J.Museyibzada | |
| Improving Uzbekistan's economic cooperation through international organizations..... | 315 |
| A.A.Azizov | |
| Turonning qadimgi o'yinlariga oid ayrim mulohazalar (aqliy o'yinlar misolida) | 324 |
| A.T.Ahmedov | |
| Mustaqil O'zbekistonda kasaba uyushma tashkilotlarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari | 328 |
| D.A.Urinbayeva | |
| Mustaqillik yillarida yoshlarni harbiy kasbga yo'naltirishda harbiy vatanparvarlik tarbiyasining o'rni..... | 334 |
| T.Ch.Xoliyarov | |
| Makedoniyalik Aleksandr nomi bilan bog'liq shaharlar tarixiy geografiyasi | 340 |
| X.X.Mamajonov | |
| Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyati tarixining usmoniy imperiyasi tarixshunosligida o'rganilishiga doir ayrim fikr va mulohazalar | 347 |
| I.S.Yusupov | |
| Mustaqillik yillarida O'zbekistonda pochta aloqa tizimiga raqamli xizmat turlarini joriy qilinish tarixi | 351 |
| F.K.Jumanazarova | |
| Ijtimoiy himoya tizimida xotin-qizlar bandligini ta'minlanishining maqsad va vazifalari hamda amalga oshirish mexanizmlari..... | 356 |
| U.X.Gulmatov | |
| O'zbekiston SSR transporti va uning sovet hukumati iqtisodiyotidagi o'rni | 359 |
| | ADABIYOTSHUNOSLIK |
| U.B.Matmurotova | |
| Badiiy tarjimada stilistik muvofiqlik - stilistik vositalardan biri o'xshatish misolida..... | 364 |
| Sh.A.Safarova | |
| "Layli va Majnun" dostonining na't bobida an'ana va poetik yangilanish | 369 |
| D.I.Nazarova | |
| Hozirgi aruziy she'rlarda fonetik hamda leksik-stilistik o'zgarishlar | 374 |
| | TILSHUNOSLIK |
| A.B.Uralov | |
| Til sathlarida nomutanosiblik | 381 |
| A.Sh.Muxamadiyev | |
| Properties of expressification of verbal aggression in uzbek and english literature..... | 386 |
| Sh.M.Sultonova, S.I.Sodiqova | |
| Ismlarning qo'llanilish dinamikasi sotsiomadaniy muammo sifatida | 393 |
| U.Sh.Turaeva | |
| Yuridik terminlar tarjimasida sinonimiya tarjima muammosi sifatida..... | 398 |
| Y.T.Rakhmonkulova | |
| A comparative study of kinship aphorisms in english and uzbek languages | 401 |
| O.F.Turdaliyev | |
| "Guliston" asarida somatik birliklarning qo'shma fe'l yasalishidagi roli | 405 |
| M.O.Usarova | |
| Ingliz va o'zbek tillarida salomatlik va kasallikka oid maqollarning semantik xususiyatlari | 413 |
| Ч.Х.Чамолов, Ф.Р.Мандонова | |
| Смысловые нюансы соматических фразеологических единиц в селе хушер | 417 |
| B.Q.Nomonov | |
| Matbaa va qadoqlash sohasi terminlarining leksik struktur tadqiqi..... | 426 |



UO'K: 821.133

“LAYLI VA MAJNUN” DOSTONINING NA'T BOBIDA AN'ANA VA POETIK YANGILANISH**ТРАДИЦИЯ И ПОЭТИЧЕСКОЕ ОБНОВЛЕНИЕ В ПЕРВОЙ ГЛАВЕ ЭПОСА «ЛЕЙЛИ И МАДНУН»****TRADITION AND POETIC RENEWAL IN THE FIRST CHAPTER OF THE EPIC "LAYLI AND MADNUN"****Safarova Shahlola Amin qizi** 

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Maqolada Alisher Navoiy ijodida alohida o'rin egallaydigan “Xamsa” dostonlaridan biri bo'lmish “Layli va Majnun” tarkibidagi na't bobi g'oyayaviy-badiiy tahlilga tortilgan. Bunda germenevtik va analitik tahlil metodlaridan foydalanildi. Sharq mumtoz adabiyotidagi an'anaviy boblar (hamd, na't, munojot)dan biri bo'lgan na't (arab. –maqtov, ta'rif) bobi payg'ambar(lar) sha'niga aytiladigan maqtov so'zlardan iborat bo'ladi. Dostonda ikkita na't bobi mavjud bo'lib, ularning birinchisi payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning nubuvvat olamining toji, payg'ambarlarning so'z so'zlashda eng mohiri ekanliklari haqida bo'lsa, ikkinchisi hech qaysi avliyo-yu anbiyoga nasib etmagan, faqatgina Payg'ambarimizga tuhfa etilgan mo'jizaviy “me'roj” tuni haqidadir. Ikkala bob ham dostonning umumiy mazmun mundarijasi bilan uzviy bog'liq. Tahlil davomida misralarda keltirilgan fikrlarning manbalari, ya'ni Qur'oni Karim, Hadisi Sharif, tasavvuf ta'limoti bilan bog'liq jihatlarga e'tibor qaratiladi. Doston tarkibidagi she'riy satrlar nasriy bayon qilinib, tahlilga tortildi. Na't bobi tahlilga tortilar ekan, o'zbek kitobatchilik tarixida maxsus an'ana (an'anaviy kirish boblar: basmala, hamd, munojot, na't) larning shakllanishi haqida ham fikr yuritiladi. Maqolada shoiringning badiiy mahoratiga ham baho beriladi.

Аннотация

В статье в идейно-художественном плане анализируется один из эпосов «Хамса» «Лейли и Меджнун», занимающий особое место в творчестве Алишера Навои. При этом использовались герменевтические и аналитические методы анализа. Одна из традиционных глав (хвала, на'т, муноджот) в восточной классической литературе, глава на'т (араб. - хвала, определение) состоит из слов хвалы, произнесенных в честь пророка(ов). В эпосе есть две главы восхваления, первая из которых посвящена венцу мирового пророчества нашего пророка Мухаммада (мир ему и благословение Аллаха) и тому, что пророки наиболее искусны в речи, а вторая не приписывается любого святого или пророка речь идет только о ночи Мираджа, которая была дарована нашему Пророку. Обе главы неразрывно связаны с общим содержанием эпоса. В ходе анализа уделяется внимание источникам мысли, изложенным в аятах, то есть Священному Корану, хадисам Шарифа, аспектам, связанным с учением суфизма. Поэтические строки эпоса были описаны в прозе и проанализированы. В ходе анализа главы На'т рассматривается также формирование особых традиций (традиционных вводных глав: басмала, хамд, муноджот, на'т) в истории узбекской литературы. В статье также дана оценка художественному мастерству поэта.

Abstract

In the article, one of the "Khamasa" epics, "Layli and Majnun", which occupies a special place in Alisher Navoi's work, is analyzed in an ideological and artistic way. Hermeneutic and analytical analysis methods were used in this. One of the traditional chapters (praise, na't, munojot) in Eastern classical literature, the chapter na't (Arab. - praise, definition) consists of words of praise spoken in honor of the prophet(s). will be There are two chapters of praise in the epic, the first of which is about the crown of the world of prophethood of our prophet Muhammad (pbuh) and the fact that the prophets are the most skilled in speaking, and the second is not attributed to any saint or prophet. it is only about the night of Miraj, which was given to our Prophet. Both chapters are inextricably linked with the general content of the epic. During the analysis, attention is paid to the sources of the thoughts presented in the verses, that is, the Holy Qur'an, Hadith Sharif, aspects related to the teachings of Sufism. The poetic lines of the epic were described in prose and analyzed. As the Na't chapter is analyzed, the formation of special traditions (traditional introductory chapters: basmala, hamd, munojot, na't) in the history of Uzbek literature is also considered. The article also assesses the poet's artistic skills.

Kalit so'zlar: na't, me'roj, doston, badiiy mahorat, talmeh, tanosub, “Xamsa”, “Layli va Majnun”.

Ключевые слова: нат, мирадж, достан, художественное мастерство, тальме, рати, «Хамса», «Лейли и Маднун».

Key words: na't, mi'raj, poem, artistic skill, talmeh, ratio, "Khamsa", "Layli and Madnun".

KIRISH

Sharq mumtoz adabiyotida ijodkorlar o'z asarlarini an'anaviy boblar bilan boshlashlari tabiiy hol edi. Xususan, bu an'ana xamsachilikda ham o'z aksini topgan. Navoiy ham bu an'anaga qat'iy amal qilgan, biroq ustoz xamsanavislardan farqli o'laroq, shoir payg'ambarimiz ta'rifi va me'roj tuniga batafsil to'xtalib, ular uchun alohida-alohida ikki bob ajratgan. Shu kunga qadar doston qahramonlari bo'lmish "Layli" va "Majnun" shaxslarining genezisi bir necha ishlar davomida o'rganilgan. Ammo ma'lum sabablarga ko'ra, uning an'anaviy boblari va ularning manbalari chuqur o'rganilmagan. Biz e'tiborni aynan, baytlarning manbasiga qaratdik. Doston tarkibidagi ikkala na't ham nasriy sarlavha bilan boshlanadi. Birinchi na't payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning ta'rif va tavsiflariga bag'ishlangan bo'lib, shoir ul zotni payg'ambarlik osmonining "quyosh"i deb ataydi. Ikkinchi na'tda esa, payg'ambarimizning "me'roj"ga ko'tarilishlari haqida so'z boradi. Ma'lumki, me'roj islom va tasavvuf olamida alohida mavqega ega masalalardan sanaladi. Shu bois, mumtoz adabiyot ham ayni masalaga keng e'tibor qaratgan. Navoiy ijodi ham bundan mustasno emas. Hatto, Sharq musulmon mamlakatlari adabiyotida me'rojga bag'ishlangan maxsus "Me'rojnoma" (Ahmad Yassaviy "Hikoyati Me'roj", Sulaymon Boqirg'oniy "Me'rojnoma", Boborahim Mashrab "Me'rojnoma") asarlari yaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ma'lumki, Navoiy asarlari hayotiy bo'lganligi sababli ta'sir etish doirasi ancha yuqoridir. U o'zi yashab turgan davr hayotini har tomonlama aks ettirishga harakat qilgan. Mazkur ishda Navoiy "Xamsa" asarining uchinchi dostoni bo'lmish "Layli va Majnun" tarkibidagi na't boblar badiiy tahlil qilingan. Bunda tasniflash, analitik tahlil, qiyosiy metodlardan foydalanilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Ul risolat sipehrining quyoshi na'tidakim, mag'rib soridin tulu' qilib, Makka avjida kamol tutti, balki anvari ashroqi bila mashriqdin mag'ribqacha «Kashshamsi nisfunnahor» yorutti va kufr shomida islom sham'i yoqti.

Ul risolat sipehrining (payg'ambarlik osmonining) quyoshi ta'rifidakim, mag'rib (G'arb kunbotar) tomondan tulu' qilib (quyosh yoki oying chiqmog'i), Makka markazida kamol tutti. Mashriqdan Mag'ribgacha (Sharq kunchiqardan, G'arb kunbotargacha) bo'lgan tomonlarni yorug'lik nurlari bilan «Kashshamsi nisfunnahor» (tush paytidagi quyoshday) yoritdi va kofirlik tunida islom shamini yoqdi. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) ummatlarni hidoyatga yetaklash, islom arkonlarini ommaga yoyish uchun yuborilgandirlar. Ushbu fikr Qur'oni Karimdagi Nahl surasining 36-oyatida o'z tasdig'ini topgan:

الطَّاعُونَ وَاجْتَبُوا اللَّهَ اعْبُدُوا أَنْ رَسُولًا أُمَّةً أَلَّ فِي بَعَثْنَا وَلَقَدْ

Biz har bir ummatga: «Allohga ibodat qilinglar va shaytondan yiroqlashinglar», -degan vahiy bilan payg'ambar yuborganmiz. [5,83]

Bukim sanga charx xoki rahdur,

Me'roj tuni munga guvahdur.

Bu kunda charx (osmon, falak) xoki (tuprogi) sen uchun rahdir (yo'ldir). Me'roj tuni (Me'roj) lug'atda "yuqoriga ko'tarilish", "zinapoya" ma'nolarini anglatadi. Shariatda esa Muhammad sollallohu alayhi vasallamning Baytul Maqdisdan Sidratul Muntahoga – Allohning huzuriga ko'tarilishlari "Me'roj" deyiladi) bunga guvohdir.

Ushbu tun haqida Ahmad Yassaviy quyidagicha bayt bitgan:

Ey birodar, me'roj so'zi yolg'on emas,

Dini sustroq munofiqlar nelar demas,

Ul azaldin tiyrabaxtdur, o'zga kelmas,

Chin ummatsen eshtib, durud ayting do'stlar. [7,41]

Ey «kuntu nabiyyan» aylab og'oz,

Cho'p xilqating ichra aytibon roz.

Ey «kuntu nabiyyan» ("Men payg'ambarman" deb boshlanuvchi hadisga ishora) og'oz ayladim (boshladim). Xilqat (yaratilish)ing ichra roz aytdim (sir oshkor qildim).

Kimki bunga hujjat da'vo qilsa, "Men payg'ambarman" iborasi yetarli hujjatdir.

وعن ميسرة الفجر قال: قلت: يا رسول الله متي كنت نبيا؟ قال: "كنت نبيا وأدم بين الروح والجسد" رواه الامام احمد والبخاري

Maysaradan rivoyat qilinadi: "Yo Rosululloh qachon payg'ambar bo'lgansiz?" deb so'radim. U kishi: "Odam alayhissalom ruh va jasad orasida bolganida men nabiy edim" dedilar.

Buyrug'laring elga qarz yanglig',
Sunnatlaring ulga farz yanglig'.
Qadring yeti charxdin muallo,
Zoting xud ikki jahondin a'lo.

Buyurganlaringni so'ssiz bajarish, musulmon eliga qarzdir. Sunnatlarning (shariat jazm etmasdan talab qilgan, uni qilgan odam savob olib, qilmagan mazammam qilinmaydigan amal) bizga farz (shariat jazm ila, shubhasiz va qat'iy dalil bilan talab qilgan ish) kabidir. Qadring yetti osmondan muallo (baland). Zoting ikki jahondan a'lo. Payg'ambarimizning aytgan so'zlari, bajargan amallari musulmon ahli uchun namunadir. U kishiga ergashish Allohga olib boradigan eng yaqin yo'ldir. Bir oyati karimada: Alloh hazrati Payg'ambarimiz (s.a.v.)ga xitob qilib: «Ayting (ey habibim): "Agar sizlar Allohni sevmog'ni istasangiz, yaxshi quli bo'lmoqni istasangiz, bizlar Allohning buyrug'ini tutgaimiz, deydigan bo'lsangiz, unda men Uning payg'ambariman, menga itoat eting», deb ularning vazifasini tushuntir, ular senga tobe' bo'lsinlar" – deydi. [3,95]

Ul shomi visolningkim, «Val-layli izo yag'sho» oyati bo'la olg'ay aning shonida savodi yozilmog'i va munungdek shomda ul musofiri samoviyning shabgir baland qilmog'i va subhi visol eshiklari yuziga ochilmog'i va mehri murod topilmog'i.

Bob nomi muayyan tarzda asarning bosh qahramonlaridan biri (Layli) ning nomi bilan uyg'unlik kasb etadi: "Ul shomi visolingkim, "Val-layli izo yag'sho" ("Tun qorong'iligi bilan qasam ichaman") oyati bo'la olg'ay aning shonida savodi yozilmog'i..." [1,13]

Abu ad-Dardo': «Abdulloh (ibn Mas'ud) «Vallayli izo yag'sho vannahori izo tajallo» oyatini qanday qiroat qilur erdilar?» — dedilar. Shunda men ul kishiga: «Val-layli izo yag'sho van-nahori izo tajallo vazzakari val-unso» — deb «va mo xalaqa» so'zlarisiz qiroat qilib berdim. Abu Dardo': «Alloh taolo haqi, Rasululloh sallallohu alayhi va sallam bu oyatni menga qiroat qildirib, o'z og'izlaridan (tillaridan) mening og'zimga (tilimga) o'tkazganlar», — dedilar» (ya'ni, «va mo xalaqa» so'zlari yo'q erdi» demoqchilar). [2,48]

Bu shomg'a istasang nihoyat,
Ul shomdin aylagil hikoyat.

"Layli va Majnun" dostonidagi me'roj bobi muallifning ruhiy kechinmalari tasviri bilan boshlanadi. Muallif sakkiz baytda umrning befoyda o'tgan lahzalaridan pushaymonlik, ertangi kun iztirobi, ruhiy tushkunlik va umidsizlikdan qutulmoq yo'llarini axtarish kabi holatlarni tasvirlagan. To'qqizinchi baytdan boshlab esa, me'roj kechasi ta'rifi boshlanadi.

O'n olti baytda bashariyat tarixidagi eng ulug' mo'jizalardan birining sodir bo'lishi arafasidagi holat tasvirlanadi. Tun rangi mushki nobdek qop-qora, ammo bu qorong'ulik dilga surur bag'ishlaydi. Ishroq nazariyasi asoschisi Shihobiddin Suhravardiy olamdagi barcha yorug'liklarning asosi qora nur, deb hisoblaydi.

Atfoli nujum aylabon mayl,
O'qurg'avu o'qumog'i "Val-layl".

Me'roj kechasi ham ana shunday nur bilan g'arq bo'lgan edi. Yer yuzini g'am gardidan poklagan shabnam osmondagi yulduzlar kabi shu'la taratadi. Nur sochayotgan shudringlar sababli, yer ham osmonning ko'zgisiga aylangandek go'yo. Butun borliq Alloh hamdida tasbeh aytmoqda. Jumladan, osmondagi yulduzlar "Val-layl" surasini o'qimoqqa mashg'ul. "Val-layl" iborasi Qur'onning shu nomdagi surasining birinchi oyatidan iqtibos qilingan bo'lib, mazkur bobning sarlavhasida keltirilishicha, Alloh taolo Borliqni o'z zulmatiga o'ralib kelayotgan kecha bilan qasam ichayotganida me'roj tunini nazarda tutgan: "Ul shomi visolningkim, "Val-layli izo yag'sho" oyati bo'la olg'ay aning shoni savodida yozilmog'i..." [5,28]

Kim rangi edi chu mushki nobi,
Har yulduzi rashki oftobi.

Navoiy me'roj tunini ta'riflar ekan, bu tunning rangini toza mushk rangiga o'xshatib, uning har bir yulduziga quyosh rashk etadi deb yozadi. Shoir dostoning ushbu bobida Rasululloh (s.a.v.)ning mahbub (Haq) vasliga orzumand bo'lishlari (Mahbub xayoli birla mashg'ul), uning

huzuriga ketayotganlarida behush bo'lishlari (Solib o'zin anda bexudona) bilan bog'liq holatlarni keyinchalik dostonning asosiy qismida Majnun timsoliga ko'chiradi. [6,51]

Bir yerga yetibki, aql yetmas,
Ul vajah ila aql bovar etmas.
Poya topib anda qoba qavsayn,
Diydor o'lub anga qurratul-ayn.

O'sha tunda payg'ambarimiz bir yerga yetib bordilarki, bunga aql bovar qilmaydi. Qoba qavsayn (ikki yoy oralig'idagi masofa)da Alloh bilan ko'rishish martabasiga erishdilar. Ushbu diydordan qurratul-ayn (ko'z ravshanligi) bo'ldi.

Yettinchi qavat osmondan keyin Rasululloh (s.a.v.) shunday bir olamga chiqarildilarki, «Na makon bor unda, na tuproq va na samo» deya ta'riflanadigan, yana ham to'g'rirog'i, ta'rifiga so'z o'qiz bo'lgan bir olam...

«Sidratul muntaho» deb ataluvchi maqomga keldilar. Hech kim ko'rmagan, bilmagan bu ilohiy daraxt haqida hikoya qilar ekanlar, payg'ambarimiz: «Sidratul muntahoni shunday ranglar qamrab olgan ediki, buni oddiy so'zlar bilan tasvirlab berolmayman», U juda ulug' bo'lib, hech kim bu daraxt husnini tavsif qila olmas ekan. Uning shoxlari arsh tog'iga, asli yettinchi qavat yerning ostida ekan. «Me'rojnomada»dagi fikrlar buni dalillaydi: «Ul daraxt ostida kofurdin masjidini ko'rdumki, uzunlig'i yetti ming yillik yo'ldur. Va ul masjidni atrofida dunyoni ko'rdumki, ani kanori paydo ermas va u daryoni suvi sutdin oqroq va asaldin shirinroq va mushkdin xushbo'yroq va qordin sovuqroq»degan edilar. Ushbu me'roj kechasida Rasululloh (s.a.v.) jannat va jahannamni ko'rdilar, u yerda mukofot oladigan va jazo tortadigan insonlarga guvoh bo'ldilar. Shuningdek, mazkur kechada Robbul Olamiyn suyakli payg'ambarini huzurida qabul etdi. Ta'rifiga sig'maydigan g'aroyib damlar edi bu. Nabiiyi akram (s.a.v.) Buyuk Allohni ko'rish va u bilan yuzma-yuz suhbatlashish sharafiga muyassar bo'ldilar. [3,78]

Oy bordi-yu keldi mehri raxshon,
Dur bordi-yu keldi bahri Ummon.

Navoiy Muhammad payg'ambar (s.a.v.)ning Buroq otiga minib, ko'kka ko'tarilishini tashxis san'ati vositasida bayon qilar ekan, sayyoralar, yulduzlar, o'n ikki burjlarning nomlarinigina emas, ularning xususiyatlarini ham ko'zda tutib, Me'roj tunining mo'jizaviy holatini tasvirlaydi. Shoirning yozishicha, payg'ambar Allohning huzuriga oy bo'lib borib, quyosh bo'lib qaytdi, gavhar bo'lib borib, Ummon dengiziga aylanib keldi.

Har necha talab qilib fuzunroq,
Istardini ani topib burunroq.
Haq lutfidin ilgida baroti,
Mazmuni bori ulus najoti.

Har nimaniki, ko'proq talab qilsam ham, ularning barchasini istaganimdan burunroq topdim. Haqning marhamatidan qo'lida baroti (oqlik qog'ozi, xon tomonidan berilgan ozodlik xati. Ushbu baytda majoziy ma'noda Qur'oni Karimning yangi nozil qilingan oyatlari nazarda tutilmoqda). Uning mazmuni esa, xalqning najotidir. L.Lavanti shunday deydi: «Ilohiy ilhom va nur – «Haq nuri» tufayli so'fiyning qalbi oydinlanadi, tili haqiqat va hikmat aytish quvvatiga ega bo'ladi» [4,63]. Me'rojning eng katta mukofoti, payg'ambar (s.a.v.)ning Alloh taolo bilan ikki yoy (qoba qavsayn) yaqinligidagi masofada turib muloqot qilishlari edi. Lekin bu uchrashuvdan payg'ambarimiz kuniga ellik marta namoz o'qish vazifasini olib, u Oliy dargohni tark etdilar. Qaytishlarida hazrati Muso (a.s.):

— Men Isroil o'g'illarini bu masalada yetarli darajada sinab ko'rdim. qayt Rabbingning oldiga, bu namozlarning bir qismini kamaytirishini so'rab yolvorgin,— dedi. Haq taologaga qilingan iltijo oqibatida o'n vaqt namoz ato etildi. Hazrati Muso takror yuqoridagi gaplarni yodlariga soldilar, Rasululloh (s.a.v.) qayta iltijo qildilar. Shu zaylda dastavval kuniga ellik marta o'qilishi buyurilgan namoz takror-takror niyozlar tufayli besh vaqt o'qilishi farz etilib tasdiqlandi. Me'roj kechasida payg'ambarimizga Qur'oni karimning yangi oyatlari nozil qilinadi. [3,101]

XULOSA

Alisher Navoiy ijodi haqida fikr yuritilganda aytish lozimki, «Xamsa» uning gultojidir. Tahlillar davomida shunga guvoh bo'ldikki, na't boblarning manbasi islom dinining muqaddas kitobi «Qur'oni

ADABIYOTSHUNOSLIK

Karim” va hadisi shariflardir. Ijodkor bu baytlar orqali Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning insoniyatga mayoq bo‘lib, to‘g‘ri yo‘lga boshlash uchun yuborilganliklari, u kishining amallari, axloqlari musulmon axliga namuna bo‘lishi haqida so‘z yuritadi. Shuningdek, shoir payg‘ambarimizning islom dinini va uning arkonlarini musulmon olamiga tarqatish yo‘lidagi qiyinchiliklari haqida ham dalillar keltiradi. Xulosa qilib shuni ayta olamizki, “Xamsa” turkiy adabiyotning shoh asari. Uning tarkibidagi besh doston ham kitobxonni fikr yuritib, o‘zi uchun xulosa chiqarishga undaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Alisher Navoiy. MAT. 20 jildlik.9-jild: Layli va Majnun. - T. “Fan” 1991.
2. Alibek Rustamov “Navoiyning badiiy mahorati”.-T.:1979.
3. Karomat Mullaxo‘jayeva “Alisher Navoiy g‘azaliyotida tasavvufiy timsol va badiiy san‘atlar uyg‘unligi”.-T: “Akademnashr” 2019.
4. Nurboy Jabborov “Maoniy ahlining sohibqironi” – Toshkent.”Adabiyot” 2021.
5. Qur‘oni karim ma‘nolarining tarjimasi / Tarjima va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur. - T.: Toshkent islom universiteti nashriyoti, 2001.
6. R. Vohidov. Navoiy va ilohiyot.–“Buxoro” nashriyoti, 1994.
7. Xoja Ahmad Yassaviy “Devoni hikmat”.-T: "Movarounnahr" 2004.